



PSIXOLOGNING KASBIY KOMMUNIKATIV, PSIXOLOGIK-PEDOGOGIK KOMPETENTLIGI

Avlaqulov Bobir Ro'ziqulovich

orcid:0009-0005-2112-2394

University of Tashkent for Applied Sciences, Teacher of the department "Psychology" Street Gavxar-1
Tashkent 100149 Uzbekistan boburaslan1821@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910010>

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologlar kasbiy faoliyatining samaradorligi, **pedagogik-psixologik kompetentligi** - bu mutaxassis talabalarning individual xususiyatlarini, ularning o'qishga bo'lgan munosabatlarini va o'z-o'zini anglash darajasini tushunish qobiliyatidir. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda psixolog kompetentligini oshirish uchun qo'llaniladigan innovatsion uslublar ko'rib chiqiladi.

Psixolog kompetentligini rivojlantirishning muhimligi zamonaviy ta'limda o'quvchilar faqat bilim olishlari emas, balki ularga psixologik qo'llab-quvvatlash kerak. Psixolog kompetentligi o'qituvchiga zamonaviy imkoniyatlarni beradi.

Kalit so'zlar: Psixologik kompetentlik, zamonaviy kommunikatsiya, axloqiy-ma'naviy, psixologik trening, metod, etik, kommunikativ.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье компетенция педагог-психолога - это умение понимать индивидуальные особенности студентов-специалистов, их отношение к учебе и уровень самосознания. В данной статье будут рассмотрены инновационные методики, применяемые для повышения компетентности психолога в современном образовании. Важность развития компетентности психолога заключается в том, что в современном образовании учащиеся не только получают знания, но и нуждаются в психологической поддержке. Компетентность психолога дает педагогу современные возможности.

Ключевые слова: психологическая компетентность, современная коммуникация, морально-духовная, психологическая подготовка, метод, этика, коммуникативная.

INNOVATIVE METHODS OF PSYCHOLOGIST COMPETENCE IN MODERN EDUCATION

Annotation: In this article, the competence of a psychologist is the ability to understand the individual characteristics of specialist students, their attitudes towards reading and the level of self - awareness. This article will consider innovative techniques used in modern education to improve the competence of a psychologist. The importance of developing the competence of a psychologist in modern education is that students not only receive knowledge, but also need psychological support for them. The competence of a psychologist gives the teacher modern opportunities.

Keywords: psychological competence, modern communication, moral-spiritual, psychological training, method, ethics, communicative.

Mazkur maqolaning mohiyati shundaki, psixologlar kasbiy faoliyatining samaradorligi, pedagogik-psixologik kompetentlik, insonlar bilan muloqoti, psixolog tomonidan amalga oshiriladigan ishlar (psixodagnostik, psixokorreksion, psixoprofilaktik, psixologik maslahat hamda kasbga yo'naltirish) sifati va natijalari psixologning kasbiy - kommunikativ kompetentligining rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Biroq, bo'lajak psixologlarni tayyorlash dasturida, shuningdek, amaliy psixologiya mutaxassisligi bo'yicha pedagoglarni qayta tayyorlash kurslarida talabalarning kasbiy - kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va maqsadli shakllantirish nazarda tutilmagan. Ilmiy tadqiqotlar va nashrlar, shuningdek, ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy e'tibor psixologlarnigina emas balki,



boshqaruv xodimlari, menedjerlar va boshqa soha mutaxassislari, odam-odam tipi kasblari mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini o'rganishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda psixolog kasbi nufuzli va jamiyat va inson uchun zarur kasblardan biridir. Bu kasb egalaridan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, kasbga moslik mezonlaridan biri bo'lgan kasbiy kommunikativ kompetentligi talab etiladi. Psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligining yetarli darajada rivojlanmaganligi u tomonidan ko'rsatiladigan xizmatning sifatiga salbiy ta'sir o'tkazib, mijoz tomonidan tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi, uning psixik salomatligiga zarar yetkazishi, jamoadagi psixologik iqlimni buzilishi va oxir-oqibatda psixologiya faniga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun psixologning kasbiy kommunikativ, pedagogik-psixologik kompetentligini oliy o'quv yurtida yoki amaliyotchi psixologlarni qayta tayyorlash kurslarida rivojlantirish ularning kelajakdagi amaliy faoliyatini samarali olib borishlari uchun sharoit yaratadi va bu quyidagi 3 yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1-yo'nalish - bu psixologlarning ixtisoslashtirilgan markazlarida maslahat ishlarini olib borishlari, mijozlar bilan muloqotga kirishishlari uchun zarur bo'lgan kasbiy-kommunikativ kompetentligi.

2-yo'nalish - amaliyotchi psixologlar yoki ta'lim muassasalari (maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseyleri, oliy o'quv yurtlari) psixolog o'qituvchilari faoliyati. Bu jarayonda psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligi o'quvchi(mijoz)lar bilan samarali muloqot olib borishlari, ularni psixologik ma'rifat va psixologik bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun muhimdir.

3-yo'nalish - amaliyotchi psixologning rahbarlar, tashkilot, korxona, muassasa xodimlari bilan ishlashda, ularga psixologik xizmat ko'rsatishda va maslahat berishda, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni ta'minlash, kadrlarni tanlov asosida qabul qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha psixologning kasbiy-kommunikativ kompetentligi hamda shaxsning yo'nalganligi (jamoada o'zaro ta'sir ko'rsatishga, kasbiy vazifalarni bajarishga, o'ziga yoki o'z **meniga**) tadqiqot davomida aniqlash va belgilash mumkin bo'lgan ba'zi shaxsiy xususiyatlarga bog'liq. Psixologning kasbiy vazifalari kasbiy muloqotning va kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim bo'lgan kommunikativ malaka va ko'nikmalar asosida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Shuning uchun bo'lajak psixologning kasbiy-kommunikativ kompetentligining mazmunini o'rganish va ochib berish, uni rivojlantirishning optimal sharoitlari, shakl va uslublarini axtarish va topish ijtimoiy, pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan o'rganilayotgan mazkur mavzu ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kelajakda sohaga oid ilmiy tadqiqotlar psixologning kasbiy kommunikativ, pedagogik-psixologik kompetentligining psixologik xususiyatlarini tavsiflovchi, uning o'ziga xos tomonlarini, mazmunini, amaliyotda qo'llash usullarini ochib beruvchi ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am JPsychiatry. 1998 – P. 4-11.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014 -B. 298
3. Кирилловский А.Н. Коммуникативная компетентность в личностном и профессиональном развитии студента // Субъектность в личностном и профессиональном развитии человека. Материалы всеросс. науч. практ. конференции. / Под общ ред. Г.М. Мухаметзяновой. Казань: КСЮИ, 2004.– С. 204-205
4. Асадов Ю., Шомишова Ш. Формирование и развитие профессионализма учителя методами и средствами социальнопсихологического тренинга // Материалы Респуб. науч.- практ. конф.: «Факторы повышения эффективности профориентации и психологопедагогической диагностики учащихся». – Ташкент, 2010. – С. 14-25.